Mahmudxo'ja Behbudiy merosi, jadid maktablarining g'oyaviy asoslari va ta'limdagi modernizatsiya yo'nalishlari	602
Mirzoyeva Nigora Shavkatjonovna, Abdisamatov Ozodbek	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini takomillashtirish metodlari.....	605
Nishonova Ra'noxon Abdullojon qizi	
Borrowed Proper Nouns in English and Uzbek: a Comparative Analysis.....	608
Amirqulova Feruza Abdurashidovna	

Ingliz tilini o'qitishda autentik videolarning amaliy samaradorligi.....	613
Dusmurodova Iroda Quvonovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari samaradorligini ta'minlashda direktor va pedagog xodimlarning hamkorlikdagi faoliyati.....	616
Olimjonova Odina Hasanxon qizi	
Boshqaruv psixologiyasi terminlarini tarjima qilish muammolari va ularni hal qilish yo'llari.....	620
Dilafruz Norboyeva	
"Kommunikativ kompetensiya" tushunchasining xorijiy va milliy manbalarda talqini: qiyosiy tahlil.....	624
G'ulomova Begoyim Elmurol qizi	
Ijtimoiy tarmoqlardagi jinsiy jinoyatlarning psixolingvistik tomonlari	627
Rahimqulova Lobar Hamro qizi	
К вопросу обучения местоимению в корейском языке	631
Муҳиддинова Малика Батировна	
The Importance and its Development Models of Critical Thinking	634
Khasanova Shokhista Mirzaakhmad kizi	
Gipertoniya kasalligining rivojlanishida sotsio-emotsional intellektning ta'siri	639
Alimirzayev Nodirbek Avazbek o'g'li	
Integratsiyalashgan va interaktiv yondashuvlar orqali o'qish tushunishini o'rgatish.....	643
Aliqulova Mohinur	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida direktorlarning shaxsiy kasbiy fazilatlarini shakllantirish.....	647
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ravshanova Noila	
Didactic Potential of Innovative Methods in Teaching Biophysics Module	652
Choriyeva Mahfuza Sadriddinovna	
Notiqlik mahoratini rivojlantirishning tarixiy pedagogik ildizlari	657
Ismoilov Usmonjon Baxramjon o'g'li	
Kartografiya darslarini zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan boyitish yo'llari	660
Jololdinov Asror Toshtemirovich	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kichik guruh tarbiyalanuvchilariga yo'l harakati turlari bo'yicha xavfsizlik talablarini o'rgatish.....	664
Jumayev Yunus Rashidovich	
Texnika yo'nalishidagi talabalarini ingliz tilini multimedia asosida o'qitishda o'quv modullarini loyihalash ...	670
Maxmudova Shaxnozaxon Odiljon qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish jarayonida tanqidiy fikrlashga o'rgatish	674
Mirzayev Akramjon O'ktamjonovich, Sobirova Munavvarxon Qaxramonjonovna	
Tajovvuz emotsiyasini tafsiflovchi fe'llar	677
Normaxmatova Feruza Ruziboyevna	
O'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish usullari	681
Otegenov Berdibay Menglibaevich	
Texnika yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetensiyalarini avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlari asosida rivojlantirish muammolari	684
Pozilova Shaxnoza Xaydaraliyevna, Xolmirzayeva Gulchehra Tulanovna	
Faoliyatli yondashuvning nazariy asoslari: talabalar nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda zamonaviy metodologik tamoyillar.....	689
Qurbonova Gulmira Alisher qizi	
Maktab o'quvchilarida xalqaro baholash dastur talablari asosida hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari	693
Radjapov Ruslanbek Sarsenovich	
Raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida bo'lajak fizika o'qituvchilarining ijodiy-intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	697
Shoyzakova Hilola Yusuf qizi	
Talabalar ehtiyojlari va qobiliyatlari asosida oliy ta'limda differensial yondashuvni amalga oshirish strategiyalari	701
Sultonova Farangiz Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviyatini oshirishda kitobxonlikni keng targ'ib qilish	706
Usmanova Maxfuza	
Talabalarda axloqiy qadriyatlarni singdirishning pedagogik asoslari	709
Xolov Olimjon Chorshamiyevich	



Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda tafakkurni rivojlantiruvchi o'yinlardan foydalanish metodikasi.....	712
Ziyomiddinova Nilufar Avazbekovna	
Влияние социальных сетей на формирование мировоззрения учащихся младшего подросткового возраста.....	716
Ибрагимова З. И.	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy rivojlantirish metodikasi	720
Axmedov Juraboy Raxmonberdiyevich	
Oliy ta'lim talabalarida ma'naviy-axloqiy madaniyat samaradorligini oshirishda jadid pedagogik merosining o'rne	725
Raxmatova Dilbar Anvar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari	730
Xaitova E'zoxon Baxrom qizi	
Sun'iy intellektdan foydalanib bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash mexanizmlari	734
Nurmamatov Zuxriddin Shavkat o'g'li	
Maktabgacha yoshidagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nutq o'stirish faoliyatining o'rne	737
Toshpulatova Nargiza Abduraimovna	
Xalq og'zaki ijodi orqali bolalarga tabiatni asrash va unga g'amxo'rlik munosabatlarini shakllantirish usullari	741
Bo'riyeva Fayyoz Baxodirovna	
Maktab ta'limida o'quv tadqiqot ishlarini tashkil etish – pedagogik muammo sifatida	745
Jurayeva Umida Yuldashevna	
Texnologiya o'qituvchilarining professional kompetentligini shakllantirish texnologiyasi.....	748
Qalandarova Urinposhsha Yuldashovna	
Raqamli ta'lim vositalari yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish ..	752
Xodiyeva Nilufar Sherzod qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativlik kompetentligini rivojlantirishni o'rganish – pedagogik muammo sifatida.....	756
Toshpo'latova O'g'li Abdurahmon qizi	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilari kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning didaktik imkoniyatlari	759
Pardaeva Matonat Salimovna	
Boshlang'ich ta'limda nutqni rivojlantirish orqali emotsional intellektni shakllantirish.....	764
Omonillayeva Maxfuza Ilyosjon qizi	
Основные научные подходы различных учёных об организации самостоятельной работы студентов	768
Чернова Татьяна Алексеевна	
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi professor-o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rne	772
Fazlidjanova Nilufar Xikmatdjanovna	
Ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat ta'limi samaradorligiga erishishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	775
Xolikov Akmal Tajidinovich	
Oliy ta'limda korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish.....	778
Axmedova Dilnora Kobiljonovna	
Психологическая устойчивость к стрессу: опыт и открытия в Узбекистане	781
Туракулова Дурдона Боходировна	
Virtual ta'lim sharoitida bo'lajak geografiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda samaradorlikni oshirish	784
Tajibayeva Xurshida Djumamuratovna, Pirmanov Mansur Qadirbayevich	



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Xaitova E'zoxon Baxrom qizi
Shaxrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarda ijodiy qobiliyatning shakllanishida rivojlantiruvchi ta'limiy muhitning o'rni yoritilgan. Shuningdek, ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalar va vaziyatlarning ahamiyati, ularning o'ziga xos jihatlari, o'yin faoliyatining turlari, mazmuni, mohiyati hamda maqsadi tahlil qilingan. Bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishda ijodiy muhitning o'rni, bolalar kreativligini shakllantiruvchi omillar va tizimlashtirilgan tamoyillar ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, bolalarning ijodiy qobiliyati, ongi va tafakkurini rivojlantirishda tarbiyachi-pedagoglarga qo'yiladigan talablar haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy qobiliyat, faoliyat, ta'limiy muhit, muvaffaqiyat, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, salohiyat, kompetentlik, tafakkur, kreativlik, faollik, tasavvur, ixtirochilik, yaratuvchanlik.

Abstract: This article examines the role of a developmental educational environment in shaping children's creative abilities. It analyzes problematic issues and situations arising in the organization of creative activities, their distinctive features, as well as types of play activities, their content, essence, and objectives. The significance of a creative environment in the comprehensive development of a child's personality, the factors that foster children's creativity, and the systematized principles are highlighted. In addition, the article provides an overview of the requirements placed on educators in developing children's creative abilities, consciousness, and thinking.

Key words: creative ability, activity, educational environment, success, knowledge, skill, competence, potential, competency, thinking, creativity, activeness, imagination, inventiveness, innovation.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль развивающей образовательной среды в формировании творческих способностей у детей. Анализируются проблемные ситуации и задачи, возникающие при организации творческой деятельности, их особенности, а также виды игровой деятельности, её содержание, сущность и цели. Определяется значение творческой среды в развитии личности ребёнка, факторы формирования креативности у детей и систематизированные принципы. Кроме того, даётся общая характеристика требований, предъявляемых к воспитателям и педагогам при развитии творческих способностей, сознания и мышления ребёнка.

Ключевые слова: творческие способности, деятельность, образовательная среда, успех, знание, умение, навык, компетенция, потенциал, компетентность, мышление, креативность, активность, воображение, изобретательность, созидательность.

KIRISH

Mustaqillik yillarida respublikamizda ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar bu sohaning yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Ushbu islohotlar natijasida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida keng imkoniyatlar yaratilmoqda va bugungi kunda ular davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Xususan, uzluksiz ta'lim tizimining ilk bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'limning izchil rivojlanishi ham buning yorqin dalilidir.

Maktabgacha ta'limning bosh maqsadi – bolalarni maktab ta'limiga puxta tayyorlash, ularni sog'lom, har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishdir. Shu boisdan ham maktabgacha ta'lim bola hayotidagi eng muhim davrlardan biri hisoblanadi.

Bugungi maktabgacha ta'lim tashkilotlari avvalgilardan tubdan farq qiladi. Ularning faoliyatida bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo'yilayotgan yuqori talablar asosiy o'rinda turib, bu esa zaruriy nazariy va amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishni talab etmoqda.



MAVZUGA OID ADABYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanida alohida e'tibor qaratilgan yo'nalishlardan biridir. Ijodiy faoliyatning ilk bosqichlari aynan maktabgacha davrda yuzaga chiqadi, chunki bu davr bolaning tafakkuri, tasavvuri, hissiyoti va qiziqishlari jadal shakllanadigan davr hisoblanadi.

Psixolog olim L.S. Vygotskiy ijodiy faoliyatni bolaning bilish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda izohlagan va "ijodiy tasavvur bolalarning kelajakdagi intellektual hamda ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi omil" ekanini ta'kidlagan. J. Piaget esa bolalarda ijodiy qobiliyatlarning shakllanishini kognitiv rivojlanish bosqichlari bilan izohlab, ularning tafakkur jarayonida mustaqil izlanish, muammoli vaziyatlarga yechim topish orqali takomillashishini asoslab bergan.

Zamonaviy tadqiqotlarda (Ziyayeva D., Tursunova M., 2022) maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida ko'rsatib o'tiladi. Xususan, interaktiv o'yinlar, raqamli ertaklar, multimediya vositalari va muammoli o'yinli mashg'ulotlar bolalarning ijodiy tafakkuri va tasavvurini kuchaytiradi.

Shuningdek, xorijiy adabiyotlarda (Erikson, 1950; Torrance, 1974) bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda tarbiyachi-pedagoglarning individual yondashuvi, muhitning qulayligi, muammoli vaziyatlarni to'g'ri tashkil etish va o'yin faoliyatining samarali yo'lga qo'yilishi muhim omil sifatida qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yaratilayotgan shart-sharoitlar, zamonaviy texnologiyalar, didaktik materiallar va o'yinchoqlar bilan muntazam ta'minlanib borilishi davlat nazorati ostida amalga oshirilayotgani quvonarli holatdir. Bu jarayonning asosiy maqsadi bitta – bolalarni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish, ularni maktab ta'limiga samarali tayyorlashdir.

Maktabgacha yosh – bolaning o'zini erkin ifoda etishi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishi va ijodkorlikni rivojlantirishi uchun eng qulay davr hisoblanadi. Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlar ularning shaxsiyati shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijodiy qobiliyatga ega bo'lgan bolalar ruhiy jihatdan barqaror bo'lib, ular bilan muloqot qilish va ijobiy munosabatlar o'rnatish oson kechadi.

Kichik yoshda bolalarning adabiy, badiiy va musiqiy qobiliyatlarini uyg'un holda rivojlantirish tavsiya etiladi. Chunki ijodkorlik ko'plab fazilatlarining birlashuvidan iborat bo'lib, psixologlarning ta'kidlashicha, uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Muammoni boshqalar ko'rmagan joyda ilg'ash qobiliyati.
2. Aqliy operatsiyalarni soddalashtirish, bir nechta tushunchalarni umumlashtirish hamda ma'lumotni sig'imli belgilarda ifodalash ko'nikmasi.
3. Bir masalada egallangan tajribani boshqa muammoga qo'llash qobiliyati.
4. Voqelikni qismlarga ajratmasdan, yaxlit holda idrok etish xususiyati.
5. Uzoq tushunchalar orasida tezkor bog'lanish o'rnatish qobiliyati.
6. Xotiraning kerakli paytda zarur ma'lumotni eslatib berish qobiliyati.
7. Tafakkurning moslashuvchanligi.
8. G'oya yaratish qulayligi va tezligi.
9. Yangi, nostandart fikrlarni ilgari surish va ijodiy tafakkurni rivojlantirish qobiliyati.
10. Faoliyat natijalarini takomillashtirish ko'nikmasi.
11. Turli xil fikrlarni erkin ifoda etish qobiliyati.
12. Asl g'oyalarni batafsil takomillashtirish va boyitish ko'nikmasi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit yaratish, ularni keng ko'lamli faoliyatga jalb etish hamda pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining eng ustuvor vazifalaridan biri – “ijodkor bola”ni tarbiyalashdir. Bu jarayon qanchalik erta boshlansa, natijasi shunchalik samarali bo'ladi va bolaning kelgusi hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijodkorlik yangi tadqiqot sohasi emas, biroq zamonaviy jamiyat sharoitida uning ahamiyati keskin ortib bormoqda. Ilmiy-texnika taraqqiyoti inson faoliyatini murakkablashtirganligi sababli, jamiyat oddiy qoliplangan harakatlarni emas, balki tezkor fikrlash, moslashuvchanlik va nostandart yondashuvni talab qilmoqda. Shu bois ijodiy qobiliyatlar zamonaviy inson intellektining eng muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda.

Bolada ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridan biri – taqliddir. Shu bois tarbiyachilar va ota-onalar bolalarga ijodiy shaxsiy xulq-atvor namunasini ko'rsatishlari zarur. Bola uchun ota-onalar ko'pincha “ideal qahramon” rolini bajaradi. Pedagogikaning muhim vazifalaridan biri ham ijodiy shaxsni shakllantirishdan iboratdir.

Ijodiy qobiliyatlar tasavvur, fantaziya, sezgi, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash, nostandart fikrlash kabi ko'plab fazilatlarini o'z ichiga oladi. Ularni erta yoshdan shakllantirish zarur, chunki mantiqiy va ijodiy fikrlash bir-birini to'ldiradi va bolalarning kuzatish, tasavvur, xotira va hissiy intellektini rivojlantiradi. Natijada o'quv jarayoni yanada samarali kechadi.

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish usullari

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun turli faoliyat turlari qo'llaniladi. Agar bola bog'chaga qatnamasa, bu jarayonni uy sharoitida ham samarali amalga oshirish mumkin. Ijodkorlik badiiy faoliyat bilan cheklanib qolmaydi, balki texnik, matematik va boshqa sohalarda ham namoyon bo'lishi mumkin.

“Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi”da ta'kidlanishicha, tasavvur va ijodkorlik shaxsiy madaniyat asosini tashkil etadi. Bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish – uning mustaqil fikrlashini, faoliyatini yo'naltirishini va o'zgaruvchan sharoitga moslasha olish qobiliyatini shakllantirishda muhim omildir.

Psixolog va pedagoglarning ta'kidlashicha, ijodiy faoliyat bolalar psixikasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi: art-terapiya stressni kamaytiradi, salbiy his-tuyg'ularni yengillashtiradi, hamdardlik va tafakkurni rivojlantiradi. Bu esa nafaqat maktabgacha davrda, balki keyingi o'quv bosqichlarida ham muvaffaqiyat uchun zamin yaratadi.

Bolalar kreativligiga ta'sir etuvchi omillar:

- ijodkor kishilar bilan muloqot doirasining kengligi;
- taqlid qilish uchun namuna bo'la oladigan kattalarning mavjudligi;
- ota-onalar va bolalar o'rtasidagi demokratik munosabatlar;
- bolaga hissiy jihatdan o'zini erkin namoyon etish imkoniyati;
- kattalarning faol fuqarolik maqomiga ega bo'lishi;
- bolalarni mustaqil mehnatga erta jalb etish;
- to'garaklar va ijodiy mashg'ulotlarga keng jalb qilish;
- yangi bilimlarni egallashdan quvonish;
- tadqiqotchilik faoliyatiga qiziqish uyg'otish;
- yutuqlarni o'z vaqtida rag'batlantirish;
- intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoit yaratish.

Pedagog va ota-onalarga tavsiyalar

Bolalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda quyidagi tamoyillarga amal qilish tavsiya etiladi:

- bolalarning har qanday ijodiy faolligiga e'tibor qaratish;
- tarbiyalanuvchilarga nisbatan shaxsiy yondashuvni kuchaytirish;
- bolalardagi ijodiylikni faqat o'yin yoki mashg'ulotda emas, balki barcha faoliyatda ko'ra bilish;
- bolalarda ijobiy o'z-o'zini baholashni shakllantirish;
- ota-onalar, tarbiyachilar va psixologlarning o'z kreativligini ham rivojlantirishi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi globallashuv davrida innovatsion texnika va texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanayotgani sababli bolalarning fikrlash doirasi hamda ijodiy qobiliyatlari ham kengayib bormoqda. Bolalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi qator yangi dasturlar joriy etilmoqda.

Jumladan, mental arifmetika san'ati aql-idrokni kengaytiruvchi, bolalarning nafaqat o'qishda muvaffaqiyatga erishishiga, balki hayotiy motivatsiyaga ega bo'lishiga ham xizmat qilmoqda. Shuningdek, mnemonika usuli tezkor xotirani mustahkamlash va ijodiy fikrlash tezligini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Bugungi kunda zamonaviy ota-onalar va o'qituvchilar bolani ijodiy rivojlantirishni o'z oldilariga ustuvor vazifa qilib qo'yg'nanlar. Shu bois o'quv dasturlarida maktabgacha yoshdagi bolalar uchun **TRIZ (Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi)**dan foydalanish va shu asosda mashg'ulotlarni tashkil etish muhim jarayon sifatida qaralmoqda. Mazkur tizimga asoslangan o'yinlar va vazifalar bolalarda faol ijodiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi, shu bilan birga kattalar va bolalar uchun ijodiy shaxs sifatida kamol topish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Yuqoridagi mulohazalardan xulosa qilish mumkinki, maktabgacha yosh davri ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun eng qulay davrdir. Ijodiy qobiliyatlarning tarkibiy qismlari masalasi bo'yicha tadqiqotchilar fikrlaridagi ayrim farqlarga qaramay, ular bir ovozdan ijodiy tasavvur va ijodiy tafakkurni ushbu qobiliyatlarning asosiy komponentlari sifatida e'tirof etishadi.

Shundan kelib chiqib, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini quyidagicha ifodalash mumkin:

- tasavvurni rivojlantirish;
- ijodiy tafakkur sifatlarini shakllantirish.

Bolalarning ijodiy rivojlanishi uchun eng muhim omil – bu ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga qulay shart-sharoit yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. PQ-3261-sonli Qaror. (09.09.2017). Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.
2. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N., Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2019.
3. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish. – Toshkent, 2020.
4. Shin A.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Grosheva I.V. O'yin orqali ta'lim olish. – Toshkent, 2020.
5. Jalilova S.X., Aripova S.M. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi. – Toshkent, 2017.
6. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011. – 420 b.
7. Niyozov G., Axmedova M.E. Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Noshir, 2011. – 140 b.
8. Axmedova M.E. Pedagogika nazariyasi va tarixi (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2011. – 128 b.
9. Omonov N.T., Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2009. – 240 b.
10. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Sano-standart, 2017.
11. Nurmamatov Z.Sh. Ways to Increase Educational Efficiency with Innovative Technologies. American Journal of Social and Humanitarian Research. – Angliya. Vol. 3, Issue 10. Oct-2022. – P.1-7.
12. Nurmamatov Z.Sh. Texnologik ta'lim yo'nalishlarida umumkasbiy, maxsus hamda tanlov fanlarning o'zaro integratsiyasi. Eurasian Journal of Academic Research. – Angliya, 2022. – B.1-3.
13. Nurmamatov Z.Sh., Xayitov J.X. Texnologiya darslarida o'quvchilarni texnologik faoliyatga tayyorlashda innovatsiyalardan foydalanish. Tezis. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuv mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Termiz, 2019. – B.248-249.
14. Nurmamatov Z.Sh., Xayitov J.X. Kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqbollari. Tezis. Boshlang'ich ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuv mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. – Termiz, 2019. – B.249-251.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.